



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 17-dekabr VII-16-129-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining «2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni, “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalari, Byudjet kodeksining 28 va 126-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentyabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta‘minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-172-sonli farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, tuman hokimligiga kelib tushgan murojaatlarni inobatga olib, Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentyabrdagi PF-172-sonli farmoni, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi murojaatlari, vazifa va topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha manbalari (*qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalariga bo‘lgan ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tuman byudjetiga tushgan mablag‘lar*) hisobidan Qo‘rg‘ontepa MFY hududidagi qishloq xo‘jaligiga qarashli yerlarning sug‘orish tizimini yaxshilash uchun trubalar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun 141 472,0 (bir yuz qirq bir mln.to‘rt yuz yetmish ikki) ming so‘m miqdorida mablag‘ tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasiga, shuningdek, 2025-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan ichimlik suvi harajatlari uchun tuman hokimligiga

20 000,0 so‘m, jami 161 472,0 (bir yuz oltmish bir mln. to‘rt yuz yetmish ikki) ming so‘m miqdorida mablag‘ ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, tuman hokimligining hamda tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasining ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuziladigan xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (A.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Jamolova) va tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasi rahbari D.Yuldashevga ajratilgan mazkur mablag‘dan maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Yo‘ldashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



**INOMOV
XAMIDULLO
TADJIYEVICH**

Xalq deputatlari Fargʻona tumani Kengashining
2025-yil 17-dekabrdagi
VII-16-129-11-163-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Fargʻona tuman mahalliy byudjetining qoʻshimcha manbalari hisobidan tegishli tadbirlarga ajratilayotgan mablagʻlar

№	Mablagʻ ajratish koʻzda tutilgan tadbirlar nomi	Mablagʻ ajratishga asos va soʻrov	Mablagʻ ajratiladigan tashkilot nomi (Budjet buyurtmachisi)	Mablagʻ manbasi	Ajratilgan mablagʻ (ming soʻm)
1	Qoʻrgʻontepa MFY hududidagi qishloq xoʻjaligiga qarashli yerlarning sugʻorish tizimini yaxshilash uchun polietilen trubalar sotib olish bilan bogʻliq xarajatlar uchun	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentyabrdagi PF-172-sonli Farmoni	Tuman Suv yetkazib berish davlat muassasasiga	Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qoʻshimcha manbalari (qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer uchastkalariga boʻlgan ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tuman byudjetiga tushgan mablagʻlar)	141 472,0
2	Tuman hokimligining ichimlik suvi xarajatlari uchun	“Fargʻona suv taʼminoti” AJ Fargʻona tuman boʻlimining 27.11.2025 yil kungi akt-sverkasi	Fargʻona tuman hokimligi	Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qoʻshimcha manbalari	20 000,0
J A M I		X	X	x	161 472,0